

IJTIMOY TARMOQLARNING JAMIYAT ONGIGA TA’SIRI (FALSAFIY TAHLIL)

To‘lanov Mamasiddiq

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,
e-mail: tolanovmamasiddiq@gmail.com

Azamov Xojiakbar Akmaljon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tibbiyot fakulteti,
Davolash ishi yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi,
e-mail: azamovmuhammad796@gmail.com

UDK UDK 316.77:004.738.5

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986358>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy jamiyat ongiga ko‘rsatayotgan ta’siri falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyat ongi tushunchasining mohiyati ochib berilib, individual va ijtimoiy ong o‘rtasidagi munosabatlar yoritiladi. Ijtimoiy tarmoqlar yangi ijtimoiy makon sifatida talqin qilinib, ularning ommaviy fikr shakllanishi, axborot tarqalishi va ongga ta’sir mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat ongiga ijobiy va salbiy ta’sirlari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, axborot madaniyatini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat ongi, ijtimoiy tarmoqlar, axborot makoni, falsafiy tahlil, ommaviy ong, axborot madaniyati.

Abstract. This article analyzes the philosophical impact of social networks on the consciousness of modern society. The essence of the concept of public consciousness is revealed, and the relationship between individual and social consciousness is highlighted. Social networks are interpreted as a new social space, and their mechanisms of public opinion formation, information dissemination, and influence on consciousness are examined. The article analyzes the positive and negative effects of social networks on public consciousness from a philosophical point of view and justifies the need to form an information culture.

Keywords: public consciousness, social networks, information space, philosophical analysis, mass consciousness, information culture.

Аннотация. В данной статье анализируется философское влияние социальных сетей на сознание современного общества. Раскрывается сущность концепции общественного сознания, подчеркивается взаимосвязь между индивидуальным и общественным сознанием. Социальные сети интерпретируются как новое социальное пространство, исследуются механизмы формирования общественного мнения, распространения информации и влияния на сознание. В статье анализируются положительные и отрицательные эффекты социальных сетей на общественное сознание с философской точки зрения и обосновывается необходимость формирования информационной культуры.

Ключевые слова: общественное сознание, социальные сети, информационное пространство, философский анализ, средства массовой информации, информационная культура.

Kirish.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotini hozirgi kunda axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar jamiyat sohalariga chuqur kirib borib, insonlarning fikrlashi, dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar faqat muloqot vositasi emas, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2024-yilda e’lon qilingan ko‘ra, mamlakatdagi internet foydalanuvchilari soni 30 milliondan oshgan bo‘lib, ulardan sezilarli qismi ijtimoiy tarmoqlarda faol.

Biz bundan to‘g‘ri foydalanishni bilishimiz kerak, aks holda biz kutmagan falokatlar yuz berishi mumkin. Bugungi kunda Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi kuchli omilga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqalish tezligi mislsiz darajada oshdi, natijada inson tafakkuri, qadriyatlarini, qarashlari va ijtimoiy xulq-atvori sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat, xususan,

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

yoshlar ongiga ta’sirida ijobiy jihatlar ham muhim o‘rin tutadi. Maqsadli va sifatli axborot resurslaridan foydalanish yoshlarning bilim darajasini oshirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda keng foydalanilayotgan Telegram platformasidagi ma’rifiy va ilmiy kanallar, shuningdek, YouTube orqali taqdim etilayotgan ta’limiy kontentlar yoshlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, onlayn ta’lim platformalari va ma’rifiy loyihalar — TED-Ed, Khan Academy kabi xalqaro resurslar, bundan tashqari Mutolaa, Ibrat farzandlari kabi mahalliy loyihalarning mahalliy foydalanuvchilar orasida ommalashuvi bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun o‘zini namoyon etish, shaxsiy brend shakllantirish, frilanserlik faoliyati bilan shug‘ullanish hamda kichik biznes va startap loyihalarni yo‘lga qo‘yishda muhim axborot va kommunikatsiya maydoniga aylanmoqda.

Falsafa nuqtayi nazaridan qaralganda, jamiyat ongi ijtimoiy borliqning in’ikosidir. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi ongda yangi shakllar, yangi muammolar va yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bu bir tomondan ijobiy holat bo‘lsa, ikkinchi tomondan salbiy jihatlar ham mavjud. Shuning uchun bu borada to‘g‘ri qaror qabul qilish muhimdir.

Jamiyat ongi tushunchasining falsafiy asoslari. Jamiyat ongi — bu jamiyat a’zolarining umumiy qarashlari, g‘oyalari, qadriyatlar va e’tiqodlarining yig‘indisidir. U individual onglar asosida shakllansa-da, mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Gegel jamiyat ongini tarixiy jarayon bilan bog‘lab talqin qilgan bo‘lsa, Karl Marks jamiyat ongining shakllanishida ijtimoiy borliqning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi.

O‘zbek falsafiy tafakkurida ham jamiyat va ong masalasi muhim o‘rin egallaydi. Forobiy jamiyat taraqqiyotida axloqiy ong va ijtimoiy mas’uliyatni asosiy omil sifatida ko‘rsatadi. Demak, jamiyat ongi doimiy ravishda ijtimoiy sharoit va axborot muhitiga bog‘liq holda rivojlanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yangi ijtimoiy makon sifatida shakllanib, ommaviy onga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Marshall Maklyuen ta’kidlaganidek, axborot vositasining o‘zi inson tafakkuriga mazmundan ko‘ra kuchliroq ta’sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda axborotning tezligi va hajmi jamiyat ongida yuzaki fikrlash hamda tezkor xulosa chiqarishga moyillikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar ommaviy fikrni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ba’zan ijobiy natijalar bersa, ba’zan ongni boshqarish va manipulyatsiya qilish xavfini yuzaga keltiradi. Natijada jamiyatda tanqidiy fikrlash qobiliyati sustlashgan shaxslar soni ortishi mumkin. Mishel Fuko qarashlariga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda hokimiyat ong ustidan nazorat orqali amalga oshiriladi va ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonni kuchaytirishi mumkin .

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat ongiga ijobiy ta’siri

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat ongiga ta’siri faqat salbiy emas, balki ijobiy jihatlariga ham egadir. Ijobiy jihatlardan biri — axborotga erkin kirish imkoniyatining kengayishidir. Jamiyat a’zolari tezkor axborot almashinuvi orqali ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu holat fuqarolik faolligining oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatdagi muammolarni tezkor muhokama qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon demokratiya rivojiga ma’lum darajada xizmat qiladi. Ko‘plab ijtimoiy tashabbuslar aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashib, jamiyat hayotida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masofa va vaqt cheklovlari bartaraf etilib, insonlar o‘zaro muloqot qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu holat jamiyatning birlashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, talabalar va o‘quvchilarning bilim salohiyatini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni muhimdir.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri va falsafiy muammolar

Shu bilan birga, tanganing ikkinchi tomoni ham mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat ongiga salbiy ta’siri ham bor. Eng asosiy muammolardan biri — ongni manipulyatsiya qilish xavfidir. Fuko ta’kidlaganidek, hokimiyat faqat majburlash orqali emas, balki ongni boshqarish orqali ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayon uchun qulay vositaga aylanmoqda.

Soxta axborot, yolg‘on xabarlar va propaganda jamiyat ongini chalg‘itadi. Insonlar haqiqatni tekshirishga ulgurmasdan, noto‘g‘ri ma’lumotlarga ishonib qolishi mumkin. Bu esa jamiyatda ishonchsizlik, qo‘rquv va beqarorlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, bu holat yosh avlod ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning turli zararli oqimlarga qo‘shilib qolish xavfini oshiradi .

Bugungi kunda Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar ayrim hollarda yoshlar ongiga nomaqbul ta’sirlar ko‘rsatmoqda. Shu sababli ayrim davlatlarda, jumladan Avstraliyada, balog‘at

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

yoshiga yetmagan bolalarning ayrim ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiga cheklovlar joriy etilgan. Bunday chora-tadbirlar jamiyat barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat ongining shakllanishida muhim va murakkab rol o‘ynaydi. Ular bir tomondan axborot erkinligi, muloqot va fuqarolik faolligini oshirsa, ikkinchi tomondan ongni manipulyatsiya qilish, tanqidiy fikrlashning pasayishi kabi xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar jamiyat ongiga ta’sir etuvchi kuchli vosita bo‘lib, ularning ta’siri jamiyat a’zolarining ongli munosabatiga bog‘liq. Shu sababli zamonaviy jamiyat oldida turgan asosiy vazifa — axborot makonida mas’uliyatli, tanqidiy va ongli tafakkurni shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh. Raqamli madaniyat va yoshlar ma’naviyati. Toshkent, 2021. – 120 b.
2. Yusupov M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2017. – 142 b.
3. Shermuhamedova Z. Ijtimoiy tarmoqlar va axborot xavfsizligi. – Toshkent: Akademiya, 2021.